



Adrian Henri ijodida ayol obrazi va sevgi mavzusining badiiy tahlili

Usmanova Sarvinoz Muminovna

O'DJTU universiteti, Adabiyotshunoslik

(Ingliz adabiyoti) magistranti

Annotatsiya: She'riyatda eng ko'p tarqalgan va muhim hisoblangan obrazlar ayol va sevgi obrazlaridir. O'zbek adabiyoti va jahon adabiyotida bu obrazlarga farqli yondashiladi. Shu sababli ushbu maqolada Pop She'riyatining Mashhur namoyondalaridan biri Adrian Henrining sh'riyatida Ayol va Sengi obrazlarining badiiy tahliliga alohida to'xtalib o'tamiza. Misol tariqasida o'zbek milliy adabiyoti va jahon adabiyotining mashur asarlaridagi ayol va sevgi obrazlariga to'xtalib o'tdik, hamda Adrian Henri ijodidagi sevgi va ayol obrazlari tahlil qilindi. Bajarilgan tahlil yordamida shoir she'riyatining ayol va sevgi obrazlarini qo'llashda o'ziga xos xususiyati o'rganildi.

Kalit so'zlar: Adrian Henri, she'riyat, ayol va sevgi obrazlari, ijtimoiy mavzular, badiiy tahlil.

She'riyat, har qanday zamonda bo'lmasin, inson his-tuyg'ularini chuqur tasvirlovchi eng sof vosita bo'lib kelgan. Uning eng yetakchi mavzulari ayol va muhabbatdir. Ushbu maqolada ayol va sevgi obrazi qanday qilib bir birini to'ldirishi va Adrian Henri ijodida ya'ni zamonaviy she'riyatda ularning qanday ifodalanishi haqida so'z yuritamiz.

Jahon adabiyotida ayol va sevgi obrazi o'lmas hisoblanib, eskirmas va aktualligi bilan ajralib turadi, olimlar she'riyatda, adabiyotda, gender nazariyasi sohalarda,



ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini, ular erkinligi, huquq va majburiyatlari to'g'risida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan, fransuz yozuvchisi va faylasufi **Simone de Beauvoir** – "The Second Sex" asarida ayolning o'zini anglash va ijtimoiy rollarini tahlil qiladi, bu esa sevgi va munosabatlarga ta'sir qiladi. Yozuvchi ko'plab tarixiy va afsonaviy manbalarni chuqur tahlili orqali, ayol rolining jamiyat tomonidan qabul qilingan "majburiyat"lari, shuningdek, erkak roli bilan nima sababdan farqlanishi, Erkak kishining to'liq mustaqil shaxs, yaratuvchi, boshliq sifatida tasvirlanishi, ayolning esa uning soyasi va erkak hokimiyatining bir obyekti haqidagi farazlar qanday paydo bo'lgani haqida chuqur fikr yuritadi. Asarda ayol jamiyatda alohida subyekt sifatida qabul qilinishi kerakligi, unga asrlar davomida chegaralangan haq-huquqlarni yo'qotish va tanlash huquqini berish kabi qonunlarni ko'rib chiqish g'oyalarini olg'a suradi. (De Beauvoir, 1949). Yana bir ayol ijodkor, ingliz yozuvchisi va tanqidchisi **Virginia Woolf** asarlarida ayolning ichki dunyosi va sevgi tasvirlari muhim o'rin tutadi. "A Room of One's Own" asarida ayol ijodkorlik va sevgi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Ayolni o'ziga xos bir shaxs sifatida tasvirlaydi, bu orqali uning hissiy hayoti va ruhiy holati ko'rsatiladi. Ayolning ichki dunyosi, Woolfning fikricha, uning ijodida va sevgi munosabatlarida muhim rol o'ynaydi. (Woolf, 1929)

O'zbek adabiyotida ham bir qator shoirlar ayol va sevgi obrazini maromiga yetkazib tasvirlashgan. Chunonchi, g'azal mulking sultoni Mir Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonining "Farhod va Shirin" dostonida Shirin obrazi ham ayol ham sevgi timsolida keluvchi go'zal hilqat sifatida ko'rsatilgan. Navoiy Shirin orqali ya'ni ayol obrazi orqali, ideal go'zallik va ma'naviy yuksak etalonni yaratadi. U go'zallik va ma'naviyatning mukammal timsolidir, ham zohiran, ham botinan go'zal bo'lgan Shirinning ichki his kechinmalari tasviri, uning Farhodga naqadar sadoqati va g'amxo'rliqi ni aks ettiradi.¹



Shirin go'zal sevgi timsoli bo'lsa, "Layli va Majnun" dostonidagi Layli haqiqiy vafo timsolidir. (Navoiy, 2021)

Adrian Henrining Mersey Sound to'plamida 28 ta she'ri chop etilgan bo'lib, yetakchi mavzu sevgi, muhabbat mavzusidir. Ham shaklan, ham ma'no jihatlarini bilan tajriba qilishni yoqtiruvchi Adrian Henrining she'rlari boshqa ishq muhabbatni tasvirlovchi shoirlar she'rlaridan farq qiladi.

Bu she'rlarning eng asosiy o'xshashliklaridan biri, sevgi ta'rifi, kundalik shahar hayoti va ijtimoiy mavzuni ustuvorligi bilan bog'lanadi. Masalan, "Without you, Love is, Adrian Henry's Talking After Christmas Blues, the Blazing Hat, Part Two" she'rlarida sevgini hayotning turli jabhalariga kirib boruvchi muhim bir kuch sifatida tasvirlaydi. Shoir muhabbatsiz hayot xira, bo'sh va noto'liq ekanligini, dunyoviy tashvishlarni arziqli sabablar bilan tasvirlab she'r ma'nosini ochib berishga harakat qiladi. Oddiygina ko'ringan, ammo shoir qo'llagan taom, musiqa yoki tabiat tasviri, muhim bir mavzuni yorituvchi qurollarga aylanadi. Muhabbat mavjudlik uchun shart bo'lgan muhim elementga aylanib, usiz (Without you) hayot o'z tafti va iliqligini yo'qotishi yaqqol tasvirlangan. (Taylor, 2013)

Adrian Henrining sevgi muhabbat she'rlari yana bir xususiyati, go'zal ayol tasviri kabi odatiy sevgi she'rlariga o'xshamaydi. Ba'zi she'rlarida ayolni behayo tasvirlar bilan tasvirlasa (Love Poem/Color Supplement), (The Mersey Sound, 2017) ba'zi she'rlarida yosh maktab o'quvchisi (the Blazing Hat, Part Two, Don't Worry/ Everything's Going to be All Right), (The Mersey Sound, 2017) sifatida tasvirlaydi. Bu bilan sevgini oddiy va sodda hamda sof ekanligini bildirmoqchi bo'ladi. Ba'zan ayol obrazi mavhum shaklda ammo hayot uchun eng zarur inson yoki narsa talqinida ko'rishimiz mumkin. Bu bilan ayol obrazi hayotning har jabhasida kerakli inson sifatida tasvirlanadi.

"Love Poem, In The Midnight Hour, Love is va Without you" she'rlari bir xil ritmda har satri bir xil boshlangan. (The Mersey Sound, 2017) Ya'ni shaklan bir-biriga o'xshash



she'rlardir. Har satrda so'zlarning takrorlanishi esa o'sha so'zning poetik ma'nosini yanada ta'sirchanligini oshiradi va o'quvchi hayolida ayol va sevgi obrazlarini yanada yorqinroq tasvirlanishi uchun muhim rol o'ynaydi.

“Song of Affluence or I Wouldn't leave my 8-Roomed House for You” (The Mersey Sound, 2017) she'rida bizni nazarimizda sevgiga yetarlicha qiymat berilmagan. Ya'ni biz sevgi ulug'langan, qadrlangan she'rlarni o'qib o'rganganimiz uchun qadrsiz sevgi g'aliz ko'rindi. Masalan, *“that feeling you's fine and kissing's you grand, But I wouldn't leave my little wooden wife for you”*. Ya'ni antitezis bilan sevgini moddiy boylikdan ustun emasligini aytib o'tadi.

“Where'er you walk², In the Midnight Hour va Country song” she'rlarida sevgi ifodasi tabiat, o'simlik dunyosi va asosan gullar vositasida tasvirlangan. Gul, go'zallik, sevgi asosiy mavzu bo'lib foydalanilgan.

Adrian Henryning “Without you” she'ri chuqur ichki kechinmalar, sog'inch va hissiy bog'liqlikni tarannum etuvchi asar bo'lib, sevgan insonining yonidaligi uning hayotini mazmunga to'ldirishi, yorqinroq ko'rinishi va yashashdan maqsadi paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Shoir sevgilisiz hayotini hayolida tasavvur etib, ijtimoiy hayotdagi kundalik odatlar, tajribalar, narsalar o'z muhimligi, qadri va jozibasini usiz yo'qolishini tasvirlaydi.

“Without You” (Sensiz) radifli she'ri erkin qofiyada yozilgan bo'lib, aniq bir ritm va vaznga solinmagandir, erkin qofiyada shoir ana'anaviy qofiyaga asoslanib emas, asosan she'rning hissiy oqimda kelishiga tasvir va she'rda paydo bo'lgan tabiiy ritm asosida yozgandir. Adrian Henri ijodiga Bit she'riyatining ta'siri natijasida qofiya va ritm an'anaviy she'rlardagidek bo'lmasada, musiqiy ohangga solingandek o'qiladi. Biroq she'rda ichki qofiyalar, ritm va tovushlar uyg'unligi bor. Masalan, *“Without you I'd have to leave my stillborn poems on other people's doorsteps, wrapped in brown paper,”* (The Mersey

² The Mersey Sound. A.Henri, R. McGough, B. Patten. Penguin Books. 2017. 38-bet



Sound, 2017, 10) shu misrasida *consonans* hodisasi mavjud bo'lib, p tovushining takror kelishi, she'rning ta'sirchanligini oshiradi, diqqat jalb etadi. Har bir misraning Without you radifi bilan boshlashi esa she'rga musiqiy ohang beradi. Asosan o'zbek she'riyatida radif misraning oxirida keladi, ritm va qofiya bilan bir butun holatga keladi. Ammo Adrian Henri ijodiga ko'z tashlasak, she'rlarida misrani boshida radif qo'llanilishi ko'p uchraydi. Bunga misol qilib, "Love Is.." she'rini ham olishimiz mumkin.

"Without you" she'rining mavzusi muhabbat, yo'qotish, sog'inch va hissiy bog'lanish kabilardir. Insonning qadrli insoni yoki sevgilisi yo'q bo'lganda qanday og'ir bo'lishini, bu yo'qotishdan kelib chiqadigan ruhiy va hissiy iztirobni ifodalaydi. Ayol, sevgili obrazini shu darajada tasvirlaydiki, "Without you there'd be no colour in Magic colouring books", usiz hayotning mazmuni va ma'nosi yo'qdek tuyuladi. "Without you there'd be no one not to kiss goodnight when we quarrel" bu misrasi esa sevgining murakkabligini va uning hayotdagi janjallar yoki tushunmovchiliklarga qaramasdan, o'zaro bog'lanish va kechirimlilikni qanday ta'minlashini tasvirlaydi. Shoir, sevgilisi yo'qligida, janjallardan keyin bir-birini kechirish imkoniyatining ham yo'qligini sezadi. Yana she'rda Klark Kent kabi kino qahramonlari, Sunday Times jurnali va Mahlerning 8-simfoniyasini tiga olinishi allyuziyani qo'llaganligining dalolatidir. "no color in Magic coloring book" misrasi esa okzamoronga ishorat qiladi.

She'rdan olgan asosiy xulosamiz shundan iboratki, inson hayoti faqat sevgi va o'zaro bog'lanish bilan to'liq bo'ladi. Sevgi yo'qligi esa, hayotni bo'sh va ma'nosiz qiladi. Henri, sevgilisining yo'qligini hayotdagi barcha ijobiy his-tuyg'ular va vazifalar yo'qligi sifatida tasvirlaydi. She'rda shaxsiy bog'liqlik va o'zaro muhabbatning ahamiyati katta va sevgilining borligi hayotning butun mazmunini tashkil qiladi.

Shunday qilib, Adrian Henri she'riyatida sevgi va ayol obrazlari an'anaviy she'riyatdagidan biroz farqli bo'lib, kundalik-ijtimoiy mavzular ustuvorligi, shakl va mazmun jihatlarining o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Sevgini oddiy hayotdagi kundalik



vositalar orqali tasvirlanishi, ayol obrazi esa mavhumroq, ammo hayot mazmuni sifatida jonlantirilishi, shoir she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. De Beauvoir, S. "The Second Sex", Lowe and Brydone LTD, London. 702 b
2. Navoiy, A. Xamsa. Yangi asr avlodi. 2021. 496 bet
3. Taylor, Helen Louise, Adrian Henri and the Merseybeat movement: performance, poetry, and public in the Liverpool scene of the 1960s Royal Holloway, University of London A thesis presented for the degree of Doctor of Philosophy, 2013
4. The Mersey Sound. A.Henri, R. McGough, B. Patten. Penguin Books. 2017
5. Wolf, V., A Room of One's Own. Harcourt Brace Jovanovich, 1989, 114 bet.